



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 25-yanvar, payshanba,  
10 (23.887)-son

**KUN  
HIKMATI**

O'ziga talabchan  
bo'lmagan odam  
birovga ham  
talabchan bo'la  
olmaydi

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

## QO'SHRABOTDA SHAMOL ELEKTR STANSIYASI ISHGA TUSHADI

O'tgan yil 11-16-dekabr kunlari Qo'shrabot tumani delegatsiyasi Xitoy Xalq Respublikasida bo'ldi. Shanxay provinsiyasi Szinan shahrida yirik ishbilarmonlar bilan uchrashuv chog'ida "Datatek Technology Co. LTD" korxonasi bilan qiymati 30 million dollarlik kvarts toshlarini qazib olish, qayta ishlash va eksport qilish loyihasi, "Shanghai Leading & Doso New Energy Technologies Co.LTD" korxonasi bilan qiymati 20 million dollarlik shamol elektrostansiyasi qurish loyihasi amalga oshirish bo'yicha memorandumlar imzolandi.

Shandong provinsiyasining "YUN FENG Co.LTD" korxonasi bilan qiymati 15 million dollarlik parrandachilik korxonalar uchun inkubator ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirish, "SHANDONG LUYOU MACHINERY Co.LTD" korxonasi bilan qiymati 3 million dollarlik metall ishlov berish (to'g'-kon sanoatida ishlatiladigan metall asbob-uskunalar mahalliyashtirish) loyihasi amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. "Noah Robot (Gwell Tech.)" korxonasi tumanimizda makka'xori yetishtirish va qayta ishlash loyihasi, "YUN FENG Co.LTD" korxonasi esa avtomobil ehtiyot qismlari ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirildi. Bundan tashqari, "JINWANGDA GROUP" korxonasi bilan qiymati 10 million dollarlik avtomobil ballonlarini ishlab chiqarish, "RUNCHNG Co.LTD" korxonasi bilan qiymati 50 million dollarlik traktor ishlab chiqarish zavodini tashkil etish loyihasi amalga oshirish ko'rib chiqildi.

Futszyan provinsiyasidagi yirik ishbilarmonlar bilan uchrashuvlarda "YONG DENG STONE COMPANY LTD"

va "XINYUXING STONE DISTRIBUTION DEPARTMENT" korxonalar bilan qiymati 35 million dollarlik granit toshlarini qazib olish va qayta ishlash, "Qhome Furniture" korxonasi bilan mebel ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi amalga oshirish bo'yicha qiymati 20 million dollarlik kelishuvlarga erishildi. Yana "CHAHUA MODERN HOUSEWARES Co.LTD" korxonasi bilan 5 million dollarlik sarmoya hisobidan oyoq kiyim ishlab chiqarishni tashkil etish, "QIANJIYING BUSINESS" korxonasi ham 5 million dollar investitsiya hisobiga bolalar tagliklari hamda ayollar uchun gigiyena vositalari ishlab chiqarishni tashkil etishi kutilmoqda.

19-20-dekabr kunlari Xeb provinsiyasida ham bir qator yirik ishbilarmonlar bilan muzokaralar o'tkazdik. Tashrif doirasida "Hebei Zaoengyuan Food Co.LTD." korxonasi 4 million dollar mablag' evaziga tumanimizda ko'chat yetishtirishni tashkil etish, "Nice Zhengding Co.Ltd" korxonasi esa 4 million dollar mablag' hisobidan gigiyena vositalari ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirish bo'yicha korxonalar bilan qiymati 236



million dollar miqdorida loyihalar shakllantirilib, 2024-yilda bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishdik.

Shuningdek, Xebe provinsiyasidagi nufuzli kompaniya va korporatsiyalarning rahbarlari bilan o'tkazilgan muzokaralarda hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama etildi. Xitoylik tadbirkorlarning yurtimizga qiziqishi yuqori. Ular kelishuvlarni qisqa muddatda amalga oshirish tarafdori. Shu bois joriy yilning yanvar oyida tumanimizga kelib, o'rganishlar olib borishadi. Shuningdek, Xebe provinsiyasi tadbirkorlari bilan Qo'shrabot tumani hokimligi o'rtasida "VICHAT" guruhi tashkil etilib, ushbu guruh orqali tumanda va Xebe provinsiyasi tadbirkorlari o'rtasida tezkor ma'lumot almashish yo'lga qo'yildi.

**Dilshod SHAKARBOYEV,**  
Qo'shrabot tumani hokimi.

## URUMCHIDA REGISTON "QURILDI"

Shinjon-Uyg'ur avtonom tumani Urumchi shahrida O'zbekiston paviloni uchun ajratilgan 10 ming kvadrat metr maydonda Registon ansamblining maketi barpo etildi. Bu maydondagi O'zbekiston bog'i o'zbek-xitoy do'stligining ramzi hisoblanadi.

Mazkur shaharda O'zbekiston va Xitoyning sarmoyaviy, savdo-iqtisodiy va sayyohlik salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar, biznes forumlar, uchrashuvlar doirasida viloyat hokimi E.Turdimov Fudziyan provinsiyasi gubernatori o'rinbosari Van Jin Fu bilan uchrashuv o'tkazdi. Ikkala tomon rahbarlari ham o'zaro hamkorlik davr talabi ekanini ta'kidlashdi.

Bugungi kunda O'zbekiston keng ko'lami islohotlar tufayli huquqlari qonun bilan himoyalangan Xitoy kompaniyalari uchun jozibador bozorga aylandi, - dedi Van Jin Fu.

Samarqand tarixiy shahar sifatida Fudziyan provinsiyasi investorlarida qiziqish uyg'otdi. Yaqin kunlarda shahar meri boshchiligida tadbirkorlardan iborat delegatsiya Samarqandga tashrif buyurib, mavjud sarmoyaviy salohiyat bilan yaqindan tanishadi.

Viloyat hokimi Urumchi shahridagi Jinsu-nadong savdo-sanoat palatasi vakillari bilan ham uchrashdi. Uchrashuvlarda parrandachilik, qurilish va tekstil sohaslarini rivojlantirish bo'yicha muloqotlar o'tkazildi. Mart oyida ishga tushirilishi rejalashtirilgan ushbu loyihalar tarixiy shaharga bo'lgan qiziqishning natijasidir.

Chin o'lkasida Samarqandga sarmoya jalb etishga qaratilgan uchrashuvlar davom etmoqda.

## XITOIY SARMOYASI ASOSIDA

Yurtimizda Xitoy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni ortib bormoqda. Ikki hamkor davlatning mushtarak qarashlari tufayli viloyatimizda ham Chin o'lkasi tadbirkorlari bilan hamkorlikda mahsulot ishlab chiqarish kengaydi.

Bugungi kunda viloyatimizda Xitoy kompaniyalarining sarmoyasi ishtirokida 80 ta - 51 ta qo'shma korxonalar hamda 29 ta xorijiy korxonalar faoliyat yuritmoqda.



2022-yilda 48 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida Xitoy davlatidan 425 million dollar xorijiy investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi. 2023-yilda 57 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish doirasida Xitoydan 394 million dollarlik xorijiy investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi. Raqamlardan ham

ko'rinib turibdiki, xitoylik tadbirkorlarning O'zbekiston bozorlariga sarmoya kiritishi ortgan. Bu istiqbolga bo'lgan ishonch va ichki bozordagi barqaror o'sish, resurslar, sharoit va eksport imkoniyatlarining mavjudligidan darak beradi.

Tashqi savdoga qaraydigan bo'lsak, 2023-yilda Xitoy davlati bilan tovar aylanmasi 71,8 million dollarni tashkil etgan. Shundan 645,8 million dollarlik import hamda 66 million dollarlik eksport amalga oshirilgan. Xitoyga qilingan eksport mahsulotlari asosan mis, yong'oq, paxta ip-kalavasi va boshqa turdagi mahsulotlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Viloyat investitsiya va tashqi savdo boshqarmasi axborot xizmati.**

Kattaqo'rg'on tumani viloyatimizning yirik tumanlaridan biri hisoblanadi, iqtisodiyotda salmoqli o'rin qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri keladi. Keyingi yillarda hududda sanoat va xizmatlar sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Kichik sanoat zonalarini tashkil etilib, mahalliy tadbirkorlarga bir qator imtiyoz va imkoniyatlar yaratilmoqda, xorijiy investorlar jalb qilinmoqda.

Ayniqsa, Xitoy mintaqalari bilan hamkorlik natijasida o'ndan ortiq yangi korxonalar tashkil etilib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari, maishiy texnik vositalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda.

O'tgan yil oktabr oyida faoliyat boshlagan "HENGYUAN CEMENT" xorijiy korxonasi ana shunday ishlab chiqarish subyektlaridan biri hisoblanadi.

"China Energy International Group Samarkand Cement" mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi xorijiy korxonalar ta'sischi sifatida tashkil etilgan zavod yiliga 3 million tonna sement ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Biz, xitoylik tadbirkorlarning O'zbekistonda faoliyat olib borishi uchun davlat tomonidan yaratil-

## Kattaqo'rg'onida SEMENT arzon bo'ldimi?



layotgan imkoniyatlarni qadrlaymiz, - deydi korxonalar rahbari Zu Dayong. - Bu ikki tomonlama aloqalarimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Mazkur korxonani ishga tushirishda ham Samarqand viloyati va Kattaqo'rg'on tumani hokimliklari bizni

qo'llab-quvvatladi. Buning natijasida 351 million AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritib, ikki yil ichida zavodni ishga tushirdik. Xitoydan zamonaviy uskunalar keltirib o'rnatganmiz va bu atmosferaga zararli chiqindilar chiqarishning oldini oladi. Kelgusi-

### Hamkorlik samarasi

da tumanda yana boshqa loyihalarni amalga oshirish niyatidamiz.

38,5 gektar maydonda bunyod etilgan korxonalar ishga tushishi bilan birinchi bosqichda 300 nafar mahalliy aholi doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. Keyinchalik yana shuncha ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilgan.

Ayni paytda korxonada M-450 va M-550 markali sement ishlab chiqarilmoqda. Hozirda faqatgina ichki bozorda sotilayotgan korxonalar mahsulotlarini joriy yildan qo'shni davlatlarga eksport qilish ko'zda tutilgan. Kattaqo'rg'onliklarning aytishicha, yangi zavod ishga tushishi bozorda sement narxi arzonlashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

O'tgan yil bir tonna sement narxi o'rtacha 800-850 ming so'm edi, - deydi xaridorlardan biri. - Hozir o'zimizning Kattaqo'rg'on sementini 650 ming so'mdan o'laymiz. Sifati ham yaxshi. Bunday korxonalar o'zimizda bo'lgani narx arzonlashishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda viloyatimizning Xitoy mintaqalari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarida Kattaqo'rg'on tumani Szyansu provinsiyasi tadbirkorlarini keng jalb etish, hamkorlikda qo'shma loyihalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

**Alisher ISROILOV.**



# MAHALLA

## NIMALAR O'ZGARYAPTI?

**2023-yilning 26-sentabr kuni Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari bo'yicha videoselektor yig'ilishida tizimni isloh qilish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan edi. 21-dekabrda davlat rahbari mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratilgan "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon hamda "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Xo'sh, bu hujjatlar nimasi bilan ahamiyatli?**

### YANGI UYUSHMA MAHALLALARNING BOSHINI BIRIKTIRADI

Eng katta yangilik **O'zbekiston mahallalari uyushmasi**, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri boshqarmalari hamda tuman va shahar bo'limlari tashkil etilishi bo'ldi.

Uyushmaning asosiy vazifalari sirasiga mahallaning xalq bilan davlat o'rtasidagi "ko'pri" vazifasini amalga oshiruvchi mustaqil va xalqchil tuzilimga aylanishiga, "mahalla yettiligi" tomonidan mahallaning ichki resurslarini aniqlash hamda ularni ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish uchun safarbar etishga, mahalla mas'ullarining malakasini oshirish, ularda zamonaviy boshqaruv ko'nikmalari shakllanishiga ko'maklashish kiradi.

O'zbekiston mahallalari uyushmasi konferensiyasi uning yuqori organi bo'lib, kamida uch yilda bir marta chaqiriladi. Kadrlar masalasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziriligining 667 ta shtat birligini qisqartirib, uyushma, uning hududiy bo'linmalari va Vazirlar Mahkamasining "Mahalla yettiligi" faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'limi tashkil etish orqali yechiladi. "Mahalla" xayriya jamoat fondi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo'linmalarining 320 ta shtat birliklari ham qisqartirilib, uyushma va uning hududiy bo'linmalariga o'tkaziladi.

Aytmagan, O'zbekiston mahallalari uyushmasi nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi. Bu mahallalarning faoliyati ustidan davlat idoralarning nazorat yoki monitoring olib borishiga barham beradi. Ya'ni, ular o'zini o'zi boshqarish organi sifatidagi maqomini saqlab qoladi.

Hujjatga ko'ra, uyushma raisi maqomi, tibbiy, transport va maishiy ta'minot sharoitlari bo'yicha Bosh vazir o'rinbosariga tenglashtiriladi. O'z navbatida uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri boshqarmalari hamda tuman (shahar) bo'limlari rahbarlari mazkur ta'minot sharoitlari bo'yicha tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi o'rinbosariga, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) hokimi o'rinbosariga tenglashtiriladi.

### KENGASHLARGA HOKIMLAR RAIS BO'LADI

Tegishli farmon bilan Respublika, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar) mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari tashkil etildi. Respublika mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi Bosh vazir, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman (shahar) mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlariga tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi va hokimlar raislik qiladi.

**Respublika mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi mahallalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilovchi, daromad va xarajatlar hamda das-turlarni tasdiqlovchi oliy organ hisoblanadi. Respublika va hududiy kengashlar jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi.**

Respublika kengashi har olti oyda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari har uch oyda, tuman va shahar mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari har oyda kamida bir maro-taba uyushma va boshqa davlat tashkilotlari, ularning tegishli hududiy bo'linmalari faoliyatini baholash va muammolarni kompleks hal qilish yuzasidan yig'iladi.

### MAHALLADA KIM, NIMA ISH QILADI?

Aytish joizki, bugungacha mahalla faollariga 100 dan ziyod normativ-huquqiy hujjatlar bilan vazifalar yuklatilgan edi. Farmonda mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan "mahalla yettiligi"ni tashkil qilish belgilandi. Shuningdek, yettilikdagi har bir xodimning vazifalari aniq ko'rsatib berildi. Quyida ularning asosiy vazifalarini keltirib o'tamiz.

**Mahalla raisi** mahalla obodligini ta'minlashi, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida targ'ibot ishlarini amalga oshirishi kerak. Har oyda bir maro-taba mahalladagi barcha ko'chalarda ommaviy hashar uyushtirish, kamida 2 ta ehtiyojmand oilaning ta'mirlab xonadonida qo'ni-qo'shnilarni jalb etgan holda hashar tashkil etish shular jumlasidan. Bundan tashqari, u har chorakda bir marotaba madaniyat xodimlari, yozuvchi va shoirlarning aholi bilan milliy qadriyatlar va urf-odatlarini saqlash, to'y-marosimlarni icham o'tkazish bo'yicha uchrashuvini tashkil etishi, mahallaga biriktirilgan davlat organlari vakillarini aholi muammolarini hal etishga safarbar etishi, **mahallada faoliyat yurituvchi hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika va soliq inspektori, ijtimoiy xodim faoliyatiga umumiy rahbarlik qilishi** lozim.

Uning vakolat muddatini 3 yildan 5 yil muddatga uzaytirish ham ko'zda tutilgan.

**Hokim yordamchisi** doimiy daromad nambaiga ega bo'lmagan ishsiz aholi ni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligini ta'minlash choralarni ko'rishi, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida kredit va subsidiyalar ajratilishida ko'maklashishi kerak. Shu bilan birga, u aholiga ijara huquqi asosida ajratilgan yer maydonlari va tomorqalarda ekilgan ekinlar va yetishtirilgan mahsulotlar hisobini yuritadi, dehqon xo'jaliklari bilan ekspertyor, broker va qayta ishlovchi korxonalarining hamkorligini tashkil etadi. Mahalladagi kambag'al oilalarning har biri uchun **"individual dastur"** ishlab

chiqish va ularning daromadini oshirish ham hokim yordamchisining vazifasi hisoblanadi.

**Yoshlar yetakchisi** mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish, jumladan, ularni "Besh tashabbus olimpiadasida" ishtirok etishga jalb qilishga mas'ul. Shuningdek, ishsiz yoshlar va maktab bitiruvchilari bandligiga ko'maklashish uchun "Yoshlar bandligi dasturi"ni mahallada amalga oshirish, huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishlash, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ko'rsatiladigan 30 ta yordam turlaridan samarali foydalanishni tashkil etish ham uning zimmasida.

Aytish joizki, farmon bilan yoshlar yetakchisiga mahallada kitob-xonlikni targ'ib qilish maqsadida **shaxsiy namuna sifatida har oyda kamida bitta kitob o'qishi**, shaxsiy rivojlanish maqsadida "Ibrat farzandlari" loyihasi doirasida **kamida 1 ta xorijiy tilni mukammal o'rganishi** belgilangan.

**Xotin-qizlar faoli odiy** "Sog'lom oila — sog'lom jamiyat" tamoyillarini targ'ib qilish, xususan, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi va erta nikohning oldini olish, reproduktiv salomatlikni yaxshilash, oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shuningdek, u xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishi, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashishi, **har oyda kamida 10 nafar og'ir ijtimoiy ahvolda tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatishni tashkil etishi**, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlarini aniqlab, profilaktika inspektoriga xabar berishi kerak.

**Profilaktika inspektori** mahallada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsiz muhitni ta'minlash, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashadi.

**Ijtimoiy xodim** og'ir ahvolda tushib qolgan va og'ir ahvolda tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar va oilalarni aniqlash, ularning ehtiyojlariga qarab, kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat ko'rsatish va yordamlarni tashkil etadi.

**Soliq inspektori** tadbirkorlarga soliq xizmatlarini ko'rsatish, soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni undirish va mahalla budjetining daromadini shakllantirishga mas'ul hisoblanadi.

### SUBSIDIYANI "MAHALLA YETILIGI" AJRATADI

Shu kunlarga mahallalarda moliyaviy va ma'muriy resurslar mavjud emas edi. Ijtimoiy himoyaga muhtojlarga moddiy yordam ajratish ham 5 bosqichdan iborat uzoq jarayonni talab qilardi. Farmonga ko'ra, 2024-yilning 1-martidan boshlab jismoniy shaxslarni "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari"ga kiritish, shuningdek, daftarlarni hamda Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi hamda Hunarmandchilik va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi orqali **ijtimoiy yordam ko'rsatish va subsidiyalar ajratish "mahalla yettiligi"ning kollegial qarori asosida amalga oshiriladigan bo'ldi.**

Ayni maqsadda har oying 5-sanasiga qadar daftarlarni uchun mablag'larni taqsimlovchi mas'ul tashkilotlar tomonidan jamg'armalarda shakllangan mablag'lar daftarlarga kiritilgan fuqarolar soniga mutanosib ravishda har bir mahalla kesimida taqsimlanadi. Hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va ijtimoiy xodim ularga yuklatilgan vazifalar yuzasidan jismoniy shaxslarni tegishli daftarlarga kiritish va chiqarish hamda ijtimoiy yordam ko'rsatish va subsidiyalar ajratish bo'yicha hujjatlarini shakllantirib, "mahalla yettiligi"ning boshqa barcha a'zolariga ko'rib chiqish va qaror qabul qilish uchun kiritadi.

"Temir daftar" Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan yuritiladi. Shunga qaramay, ularga "Saxovat va ko'mak" jamg'armasi tomonidan ko'rsatiladigan yordamlar ijtimoiy xodim tomonidan "mahalla yettiligi"ga ko'rib chiqish uchun kiritilgan holda ko'rsatiladi.

Shuningdek, hujjat bilan joriy yilning **1-yanvaridan boshlab barcha tuman va shaharlarda "Mahalla budjeti" tizimi amaliyotga joriy etildi.** Har bir mahalladagi mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi bo'lib, unga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'i bo'yicha undirilgan mablag'larning 10 foizi, mahalla idoralari orqali ko'rsatilgan davlat xizmatlari uchun undirilgan yig'ilmning 10 foizi, mahalladagi hududi 2 ming kvadrat metrgacha bo'lgan davlat ko'chmas mulk obyektlarini hokim yordamchisining onlayn-buyurtmanomasi asosida to'g'ri-dan-to'g'ri elektron onlayn-auksion savdolari orqali sotishdan tushadigan mablag'lar (baholash va sotish xarajatlari chegirilgan holda), mahallaning mol-mulki-ni belgilangan tartibda ijaraga berishdan olinadigan mablag'lar tushirilishi belgilangan. "Mahalla budjeti" tizimi doirasida amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar har oy yakuni bilan kelgusi oying 5-sanasiga qadar "Ochiq budjet" axborot portaliga joylashtirib boradi.

Asqar BAROTOV tayyorladi.

### Senatning qirq to'qqizinchi yalpi majlisida yuqori palataning 2023-yildagi faoliyati ko'rib chiqildi.

Qayd etilishicha, o'tgan yili senatorlar 91 ta qonunni ko'rib chiqqan. Bir qator qonunlar ijrosi, huquqni qo'llash amaliyoti va qonunos-ti hujjatlarining qabul qilinishini monitoring qilish yakunlari bo'yicha hukumat oldiga tegishli vazifalar qo'yishgan.

Senat yalpi majlislarida 8 marta hukumat a'zolari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, hududlar rahbarlarining axborotlari eshitilgan.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining e'tirozlariga sabab bo'layotgan masalalarni o'rganishga alohida e'tibor bergan holda, senatorlar tomonidan yalpi majlislar muhokamasiga 17 ta muammoli masala olib chiqilgan. Ulardan 9 tasi ijobiy hal etilib, 8 tasi bo'yicha muammolarni hal etish choralari ko'rilmoqda.

Shuningdek, budjetni ijtimoiy yo'naltirish, jumladan, mablag'larni hududlarda aholini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni hal qilishga yo'naltirishda Senat faol ishtirok etmoqda.

Yil davomida Senatning hududlarda olib borgan o'rganishlari va uning yakunlari asosida hukumatga kiritgan takliflari asosida joylardagi muammoli masalalarni (maktab, bog'cha, kasalxona, suvdan foydalanish, yo'l qurish va h.k.) hal qilishga umumiy hisobda 1 trillion so'mdan ziyod budjet mablag'lari yo'naltirilishi ta'minlandi.

Senat qo'mitalari tomonidan nazorat-tahlil faoliyati



## VAKILLAR FAOLIYATI HAQIDA

doirasida hududlarda 80 ga yaqin o'rganish o'tkazilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

Oliy Majlis palatalari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqashtirilmoqda.

Xususan, parlament palatalari faoliyatida parallellik va bir-birini takrorlovchi vakolatlar aniqlashtirilmoqda. Senat a'zolari 100 nafardan 65 nafargacha qisqartirilmoqda. Bunda har bir ma'muriy-hududiy birlikdan 4 nafardan senator saylanishi, 9 nafari Prezident tomonidan tayinlanishi belgilanyapti.

Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi va Senatning o'zini o'zi tartibga soluvchi vakolati kiritilmoqda. Bunday holatda Qonunchilik palatasiga yangi saylov 2 oy mobaynida o'tkazilishi, Senatning yangi tarkibi esa 1 oy mobaynida shakllantirilishi nazarda tutilmoqda.

Hududiy vakillik organi — xalq deputatlari viloyat Kengashidan olingan ma'lumotga ko'ra, o'tgan yili 15 ta sessiya o'tkazilgan. Ya'ni, viloyat organiga saylangan xalq noiblari har oy bir marta, ayrim vaqtlarda ikki marta yig'ilib, muhim masalalarni muhokama qilishgan.

Bunday yig'ilish — sessiyalarda 134 ta qaror qabul qilingan.

Yil davomida deputatlarga 120 ta murojaat bo'lgan. Shu va boshqa asoslarga ko'ra, asoslan-tirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtai nazarini bayon qilish haqida boshqaruv organlari rahbarlari-ga 324 so'rov yuborilgan.

### Konstitutsiyani o'rganamiz

## ASOSIY QONUN O'ZGARDI...

Fuqarolar yig'ini raisi endi oqsoqol emasligini bilarmidingiz?

**Dastlabki savol-ga birdan javob berish mushkul. Chunki yuzlab, balki minglab qonun va qonunos-ti hujjatlarini ortda qolgan yarim yilda yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga moslashtirish imkonsiz.**

Lekin e'tibor qiladigan bir jihat bor: davlat rahbarining 8-noyabrda kuchga kirgan PF-188-son farmonida o'zlariga biriktirilgan soha va tar-moqlarda yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llash masalasi vazirlik va idoralar rahbarlari shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo'yilgan.

Bundan kelib chiqadiki, qonun yoki qonunos-ti hujjatlarida Bosh qonunimizga zid norma va talablar bo'lishi tabiiy. Bunday holatga duch kelganingizda Asosiy qonunda belgilangan amal qilishlarini talab qilishga haqlisiz. Buning uchun esa albatta, Konstitutsiyani bilish kerak.

Shu o'rinda bir eslatma. Yuqorida qayd qilingan farmon bilan davlat rahbari imzolagan hujjatlar Asosiy qonunga moslashtirildi. Farmon bilan tanishib, bir qator yangilik va o'zgartishlar bo'lganini ko'rish mumkin. Xususan, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori bo'yicha qo'shimcha kiritildi. Endi aytilayotgan miqdor insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilandi hamda minimal iste'mol xarajatlari qiymatidan kam bo'lishi mumkin emas.

E'tibor qilinsa, qo'shimcha sodda va xalqchil tilda kiritilganiga guvoh bo'lish mumkin. Uni har qanday odam o'qib,



tushunib olishi mumkin. Birgina shu misolning o'zi garchi balandparvoz ko'rinmas-da, ijtimoiy davlat qurish yo'lidagi qadamlar nechog'lik sobiqtadamlilik bilan qo'yilayotganini isbotlab turibdi.

Yana bir o'zgartish ham aynan yangi tahrirdagi Konstitutsiya tufayli amalga oshirilgan. Unga ko'ra, Prezidentning 2023-yil 10-fevraldagi «Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni 7-bandining o'rtinchi xat-boshisi chiqarib tashlandi.

Xatboshida «to'lov xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar jismoniy shaxslar o'rtasida pul o'tkazmalari amalga oshiril-ganda, ularga ko'rsatilgan xizmatlar uchun (olingan haq, komissiya uchun «0» so'm bo'lgan taqdirda ham) elektron hisobva-raq-fakturalar taqdim etadi va rasmiylashtiradi», deb belgilangan.

Umuman, farmon bilan yana ko'plab o'zgartish, yangiliklar qilingan. Misol uchun, fuqarolar yig'ini raisi bir vaqtning o'zida oqsoqol deb ham yuritilardi. Davlat rahbari imzolagan qarorda ham shunday bo'lgan holda, endi oqsoqol atamasini chiqarib tashlangan. Sizu bizga ahamiyatli emasdek ko'rinishi mumkin, ammo birgina shuni bilmasligimiz xato qilishimizga sabab bo'lishi tabiiy.

Albatta, o'ndan ortiq hujjatga kiritilgan o'zgartishlarni bir maqolada bayon qilish imkonsiz. Ammo shunisi aytib, islohotlar, inson qadri va ulug'lash doimiylik kasb etmoqda. Bazardan talab qilinadigan, avvalo, ulardan xabardor va munosib bo'lishdan iborat.

Y. MARQAYEV.



# TASAVVURIMIZDAN YIROQ RAKURSDAGI

# TURKIYA

kasi bor.

1917-yilda Rizeda choy yaxshi o'sishi aniqlangan bo'lib, ushbu o'simlik bu yerga Batumidan kirib kelgan. 1937-yildan boshlab choy o'simligi Turkiya shimolida muhim iqtisodiy o'simlik hisoblanib kelinadi.

Turkiyada birinchi choy fabrika 1947-yilda tashkil etilgan. Garchi, choy yetishtirish va ishlab chiqarish sohasi yangi bo'lsa ham, mamlakat dunyo bo'yicha bu masalada 5-o'rinda turadi. Choy iste'moli bo'yicha esa birinchi o'rinda. Bu yerda bir yilga kishi boshiga 4 kilogramdan choy to'g'ri keladi. Darvoqe, mutaxassislarning aytishicha, choy barglari bir yilda uch marta - may, avgust, sentabrda terib olinadi.

Tarixiy diqqatga sazovor joylar orasida XVI asrga oid Islom Posho masjidi va Genuya qalasi xarobalari ajralib turadi. Lekin asosiy boylik shahar tashqarisida. Bular qarag'ayzorlar, yam-yashil o'tlar bilan qoplangan tog'lar, odatda atrofda tog'larning ajoyib manzarasini taqdim etadigan kavkaz tipidagi ikki qavatli saklyalar, tog' daryolari ustidagi tepalikli tosh ko'priklar va yog'och piyodalar yo'laklari daralar bo'ylab ko'priklardir. Yana bir hudud o'rmonli tog'lar bilan o'raltirilgan vodiyning o'rtasidan bir kilometr uzunlikdagi Uzupg'ol ko'lida tasvirlab bo'lmaydigan go'zallik darasiga olib boradi. Bu yerda ikki prezident tug'ilgan: Rejep Erdo'g'an, shuningdek, mamlakatning sobiq prezidenti, 1966-1973-yillarda hukmronlik qilgan Jevdet Sunay.

## ZILQAL'A – TOG' USTIDAGI NOYOB INSHOOT

Bu yerda turklardan tashqari, lazlar ham yashaydi. Bular asosan XV asrda islomni qabul qilgan gruzinlar bo'lib, ular ajarlarga yaqin.

Lazlar afsonaviy Kolxida aholisining haqiqiy avlodlari ekanliklari bilan faxrlanadilar, lekin ular asosan turk tilida gaplashadi. Ammo ularning talaffuzi turklar uchun qiyin.

Turkiyaning shimoli-sharqidagi Rize viloyatining Chamlihemshin tumanidagi tarixiy Zilkale qal'asi mahalliy va xorijlik sayyohlarni o'ziga tortmoqda. Ushbu qal'ani tomosha qilarkansiz, o'rta asrlarga tushib qolgan deb his etasiz o'zingizni. Qala Chat vodiysida, Rize shahridan 15 kilometr uzoqlikda joylashgan.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, qal'a XIV-XV asrlarda karvon yo'llarini qo'riqlash maqsadida qurilgan. Qal'a dengiz sathidan 750 metr balandlikda joylashgan.

Mintaqaning usmonlilar imperiyasi qo'lga o'tgandan keyin harbiy maqsadlarda foydalanilgan bo'lgan qal'ada ibodatxona va minora joylashgan. Inshoot atrofida tabiat so'z bilan tasvirlab bo'lmaydigan darajada go'zal.

Darvoqe, bu yerda tog' orasidan oqib o'tuvchi katta soylid raftingda uchish imkoni bor. Hatto dekabrda ham bu xizmatdan foydalanish mumkin edi va biz bundan olam-olam taassurot oldik. Qishning o'rtasida ham tog'larning yam-yashilligi, mandarinlarning pisib, yerga to'kilib yotishi, yam-yashil tog'lar orasidagi ulkan sharsharalaru qadim qal'alar bu yerga qayta-qayta kelish istagini tug'diradi kishida.

Gulruh MO'MINOVA.



**O'tgan yilning kuz oylari boshida Turkiyaga sayohatchi sifatida borib, taassurotlarimni maqolaga jamlagandim. Ko'pchilikdan iliq fikrlar eshitdim. Turkiyaning Samarqanddagi vakolatxonasi bosh konsuli Salih Janer maqolani o'qib, juda xursand bo'lganini bildirdi. Safar taassurotlarim bilan qiziqdi. Turkiya tarixi, madaniyati, an'analari haqida suhbatlashdik. Ushbu davlatning yurtimizdagi elchixonasi tomonidan jurnalistlar uchun press-tur o'tkazib turilishi va meni ham tarkibga qo'shishlari mumkinligi aytiladi. Maqolasi gazetada chiqqan odam ming yillik jurnalist bo'lsa-da, kichik bir munosabatdan qanchalik xursand bo'lishini, o'zini katta mukofot olganday o'zini his qilishini shu sohada ishlaganlar juda yaxshi biladi. Shu xursandchilik sabab, Turkiyaga elchixonada tashkilotchiligidan borish yodimdan ham ko'tarilib ketdi.**

Ammo kutilmaganda elchixonadan qo'ng'iroq bo'ldi va o'sha taklif aniq sanalari va dasturlari bilan bildirildi. Bir guruh o'zbekistonlik va qirg'izistonlik jurnalistlar uchun tashkil etilgan sayohatda Turkiyaning shimoli-sharqidagi shaharlar Trabzon va Rize bo'ylab qiziqarli va kishini o'timishga chorlovchi manzillarga qarab yo'l oldik.

Trabzon - Turkiyaning shimoli-sharqidagi shahar, Qora dengiz sohilida, Kolat-Tog' etagida joylashgan, qadimgi Vizantiya yodgorliklari va ajoyib tabiat manzaralari bilan ajralib turadi.

Turkiyaning Qora dengiz sohilida yoz juda issiq emas, harorat kamdan-kam hollarda 30 darajadan oshadi.

Trabzonga miloddan avvalgi VIII asrda sinoplik yunonlar tomonidan asos solingan. Bu Kichik Osiyodagi eng sharqiy yunon mustamlakasi bo'lib, u Trapez deb atalgan. Bu yerda katta tijoriy ahamiyatga ega bo'lgan port qurilgan. Keyinchalik Trabzon Pont qirolligi tarkibiga kirdi va erkin shahar maqomini oldi. Vaqt o'tishi bilan u rimliklar tomonidan bosib olinib, viloyat poytaxti va Qora dengiz floting uyiga aylantirildi. Rim davrida Trabzonning savdo markazi sifatidagi ahamiyati yanada ortdi.

Miloddan avvalgi III asrda shahar gotlar tomonidan vayron qilingan va bu uning gullab-yashnashiga chek qo'yg'an. VII-VIII asrlarda Trabzon Vizantiya viloyatining bir qismi bo'lib, asta-sekin Vizantiya imperiyasining asosiy sharqiy forpostiga aylangan. 1204-yildan beri shahar 1461-yilda usmonlilar qo'lga o'tguncha Trebizond imperiyasi kichik davlatining poytaxti edi.

## TUSHDA AYON BO'LGAN IBODATXONA

Trabzon viloyatidan 50 kilometr uzoqlikdagi Oltin dara milliy bog'ida joylashgan Sumela monastiri VI asrda qurilgan.

Bu monastirga go'zal tabiat ichra borishning o'zi kishiga zavq bag'ishlaydi. 1500 metr balandlikdagi cho'qqida barpo

etilgan qadim monastir, undagi Iso payg'ambar, Bibi Maryam suratlarini tushirilgan ibodatxona, rohiblarning xonalari, o'sha paytlarda oshxona, kutubxonasi, talabalar o'quv xonalari, hammmom vazifalarini o'tagan, toshdan yasalgan xonalar hayratlingizni oshiradi.

Afsonalarga ko'ra, qadim afinalik ikki rohib bir paytning o'zida bir xil tush ko'radi. Tushda ularga Bibi Maryam aynan shu joydagi g'orda mo'jizaviy ikona mavjudligi aytiladi. Ular ikkalasi bir paytda yo'lga chiqib, g'orda uchrashishadi va shu yerda ibodatxonaga barpo etishadi.

Qizig'i, ushbu ibodatxona yillar davomida kengayib, minglab ziyo-ratchilarning muqaddas makoniga aylanadi. Imperiyalar almashsa-da, aholi butunlay o'zgarib, bu hududga islom dini kirib kelganda ham monastir o'z faoliyatini davom ettirgan. Hatto usmonlilar podshohlari uni asrab qolish uchun moliyaviy ko'mak ham berganligi aytiladi. Faqat XX asrning boshlaridagina, yunonlar bu hududni tark etganda, u bir muddat qarovsiz qolgan. 2015-2019-yillarda bu yerda rekonstruksiya ishlari amalga oshirilib, bugungi kunda hudud sayyohlar uchun ochiq.

Umuman, Turkiyaning juda qadim tarixi kishini hayratlantiradi. Bu yerda shunchalik xilma-xillik ichra turli e'tiqodlarga, madaniyat va qadriyatlariga nisbatan cheksiz hurmatni ko'rish mumkin. Misol uchun, masjidda Iso payg'ambar tasviri tushirilgan freskalar hamon saqlanib qolganligi siz, aziz o'quvchilarni hayratlantirmasdimi?

## MASJIDDA ISO PAYG'AMBAR TASVIRI?

Aya Sofiya masjidini aylanarkanmiz, ko'zim dastlab uning hovlisiga o'rnatilgan qadim zambarakka tushdi. U nima maqsadda bu yerga keltirib, joylashtirilgan, bilimadim. Ammo men undan bir ma'no angladim.

Ichki ma'naviy ustunimiz, ishonch, e'tiqodni zambarak bilan yo'q qilib bo'lmaydi. Har qanday kuchli qurol bunga o'z o'ziga qo'yiladi, shekilli.

Darvoqe, Trabzonning o'z Aya Sofiyasi bor ekan. Hozirgi kunda masjid vazifasini o'tayotgan mazkur obida vizantiyaliklar tomonidan XII asrda cherkov sifatida qurilgan. Bu paytlar Trabzonda nasroniylar ko'pchilikni tashkil etgan. XV asrda ushbu shaharni Sulton Mehmet fath etgach, u madrasa sifatida faoliyat yuritgan. Keyinchalik muzey, 1916-yilda esa omborxonasi va shifoxona sifatida ishlatilgan.

Buni qarangki, hatto usmonlilar hukm surgan davrlarda ham o'sha paytgacha cherkov shiftiga chizilgan Iso payg'ambar va Injilda keltirilgan voqealar bo'yicha chizilgan suratlar mavjud qismi alohida ihotalanib, saqlangan. Qolgan qismi tamirdan o'tkazilib, masjid sifatida foydalanilgan.

## ARAB SAYYOHLARI NEGA TRABZONGA MAFTUN?

Trabzondagi Mustafo Kamol Ota Turk qarorgohi muhtasham va salobati bilan kishini maftun etadi. Savol tug'iladi: yuz yil avval burchalik mukammal va go'zal arxitektura uslubidagi uyni qanday qurishgan ekan?

Ha, ushbu uy 130 yil avval shahardagi grek savdogarlaridan biri tomonidan barpo etilgan. Trabzon port shahar bo'lgani uchun, bu yerda qo'shni davlatlar, Gruzuya, Sochi bilan mahsulot ayirbosh-

lash, savdo-sotiq yaxshi rivojlangan. Xullas, Turkiya respublika maqomiga erishgach, greklarning Gretsiya, Armaniston kabi davlatlarga ko'chishi avj oladi. Yuqoridagi uyni qurgan savdogar ham Gretsiyaga ko'chib ketadi, uy hudud hokimligiga o'tadi. Turklarning milliy qahramoni Mustafo Kamol Trabzonga kelganda, shu uyda qoladi va hukumat ishlari bilan shug'ullanadi. Trabzon mahalliy hukumati uyni Turkiya respublikasi asoschisiga hadya etadi. Tabiiyki, respublika ilk rahbari o'zidagi barcha mol-mulk, shu jumladan, ushbu qarorgohini ham davlatga o'tkazadi.

Turkiyaning O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan tashkil etilgan mazkur tur-sayohat davomida Trabzonning madaniyat va turizm boshqarmasi rahbari bilan o'zbekistonlik va qirg'izistonlik jurnalistlar uchrashuvi bo'lib o'tdi.

- Trabzonda 245 ta mehmonxonasi mavjud bo'lib, bir yilda 800 mingga yaqin sayyoh tashrif buyurmoqda, - deydi Trabzon viloyati madaniyat va turizm boshqarmasi rahbari Tamer Erdo'g'an. - Bu yerda arab davlatlaridan keluvchi sayyohlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ularga bu yerning o'ziga xos iqlimi, muhtasham tog'li hududlar va ko'klar manzar kelmog'ida. Umid qilamizki, kelgusida O'zbekiston va Qirg'izistondan ham bu yerga keluvchilar soni ko'payadi. Ushbu davlatlar bilan mamlakatimiz do'stligi bizni xursand etadi.

## NAFAQADAGI AYOLLAR HUNAR O'RGANISHADI

Yaxshi bilamiz, kasb-hunarga o'rgatish haqida gap ketganda biz asosan yoshlarni nazarda tutamiz. Ammo Trabzondagi Alajahon hunarmandlar markaziga borganimizda bu yerda ko'proq yoshi katta onaxonlarni uchratdik. Markazda o'nlab hunarmandchilik turlari bo'yicha ayollar mashg'ulot o'tishadi.

- Markazda xattotlik, savat to'qish, kashtachilik, zargarlik, turli ko'rinishdagi suratlar yasash kabi o'nlab hunarlar bepul o'rgatiladi, - deydi markaz menejeri Fatma Adjiye.

- Ayniqsa, zargarlik to'garagi juda mashhur. Negaki, Trabzon azaldan kumush qazilma boyligi va undan taqinchoq yasashi bilan mashhur. Taqinchoq yasashni ayollar kamida uch oy o'rganishadi. Markazimiz 2010-yilda tashkil etilgan. Ilgarilari yosh qizlar orasida hunar o'rganmoqchi bo'lganlar ko'p edi. Hozir pensiya yoshidagi ayollar ko'proq.

Gumushane, ya'ni kumushga boy deb nomlanuvchi hudud ham aynan Trabzonda. Go'yo ingichka iplari bilan ishlaganday kumush va tilla tolalaridan turli taqinchoqlar yasaladi bu yerda. Darvoqe, bunday kumush boshqa joyda uchramas ekan.

## TURKIYAGA IKKI PREZIDENT, BIR BOSH VAZIR O'STIRGAN HUDUD

Turkiya shimolidagi yana bir shahar, Rize amaldagi prezident Erdog'an tug'ilib o'sgan joy sifatida tanilgan bo'lishiga qaramay, ushbu shaharni mashhur qiladigan tomonlari juda ko'p. Rize birinchi navbatda choy shahri sifatida mashhur.

Bu shaharda 15 ta yirik choy fabri-



## MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

### Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 312 nusxada chop etildi. Buyurtma 46. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'OLONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonaning manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

## Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

## Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.

## Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



91772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda

